

## Navbat



13:30 / 27.05.2021 2725

Solih: **«Bu Allohning tuyasi va bu Allohning mo'jizasi! Sizlar so'radigiz va U O'z qudrati ila yaratdi. «Unga yomonlik yetkazmanglar, aks holda, sizni yaqin azob ushlaydi» (A'rof surasi, 73-oyat).**

Albatta bu tuya Allohning yerida yeb-ichadi, (xohlagan joyiga) borib-keladi, uning yemi va suvi sizlarni zimmangizda emas. Yem va suv esa ko'pdir. Bu tuya juda katta va maxluqotlar ichida ajoyib edi. Ular undan qo'rqib, qochishar edi. Har gal suv ichishga kelganida, hayvonlar undan qo'rqib qochar edi. Solih buni ko'rdi va: «Tuya uchun bir kun va chorva-mollaringiz uchun alohida bir kun. Bir kun bu tuya ichadi, bir kun mollaringiz ichadi», dedilar. Shunday bo'ldi ham, tuyaning gali kelganida, borib ichdi. Qavmning chorva-mollarini navbati kelganida, ular ham borib ichdi.

***Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy***

